

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN
DURADGORLIK ISHLARI TEXNOLOGIYASI FANIDAN MALAKA
SINOV I TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN
DURADGORLIK ISHLARI TEXNOLOGIYASI FANIDAN MALAKA
SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Duradgorlik ishlari texnologiyasi bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me’yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me’yoriy asoslar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi “**Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Duradgorlik ishlari texnologiyasi

1. Qurilishda yog‘och konstruksiyalari bilan ishlash texnologiyasi;
2. Yog‘och konstruksiyalarini tayyorlash uchun mehnat xarajatlari va energiyaning boshqa konstruksiyalarga sarflanishi miqdori;
3. Qurilishda pol yotqizish ishlari texnologiyasi;

IV. Baholanadigan mazmun sohalari va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalari	Konstruktlar	Testlar soni
1	Qurilishda yog‘och konstruksiyalari bilan ishlash texnologiyasi	Bugungi kunda Respublikamizda yengil va samarador yog‘och konstruksiyalaridan foydalanish darajasi yangi bosqichga ko‘tarildi.Chunki yog‘och, eng qadimiy shu bilan birga zamonaviy va samarador, tabiatda o‘z o‘rnini to‘ldirish imkoniyatiga ega bo‘lgan qurilish materialidir. Yog‘och konstruksiyalarining muhim avfzaliklari, tayyorlash uchun mehnat xarajatlari va energiyaning boshqa konstruksiyalariga qaraganda kam	15

		sarflanishi, qayta ishlash jarayonida paydo bo'ladigan chiqindilardan to'liq foydalanish imkoniyatini mavjudligi va ekologik muhitga salbiy ta'sir ko'rsatmasligidir.	
2	Yog'ochning fizik-mexanik xossalari. Yog'och konstruksiyalar elementlari birikmalari	Yog'och materiallar-tabiiy yog'ochdan tayyorlanadigan taxta,xari,xoda va boshqalardan tayyorlanadi. Tabiiy yog'ochga bog'lovchi moddalar(sintetik smolalar)shimdirib va yuqori xaroratlarda bosim ostida ishlov berib, elimlab olinadigan material bo'lib u qurilish, mebelsozlik, kemasozlik sanoatida keng qo'llanildai. Tabiiy yog'och materiallar daraxt tanasidan olinadi. Daraxt tanasi o'zak, yog'ochlik, tola va po'stloqdan iborat. Ayrim daraxtlarning faqat po'stloq va o'zak qismi ishlatiladi.	15
3	Qurilishda pol yotqizish ishlari texnologiyasi	Pol yotqizish ishlari texnologiyasi fani Qurilish ishlari texnologiyasi umumiy fanining tarkibiy qismi hisoblanib, asosan binolarning pollari, pollarning turlari, ularni yotqizish va ta'mirlash texnologiyasi, pol ishlarida ishlatiladigan zamonaviy materiallar va bu ishlarni bajarishda xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilish yo'l-yo'riqlarni hamda mehnatni tashkil etish, mehnat muhofazasi qoidalariga amal qilish, pol to'shamalariga qo'yiladigan talablarni ularga ta'sir etuvchi mexanik ta'sirlar, ishlatish sharoitlarini hisobga olish va qurilish ishlarini sifatli amalga oshirishni ta'minlashga erishiladi.	10

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. T.Maxamatqulov. Yog'och konstruksiyalari darslik. Samarqand Davlat arxitektura qurilish instituti.Shahhof-2022

2. Xodjayeva Z.Sh. Yog'och konstruksiyalari o'quv qo'llanma Toshkent 2025 yil

3. S.A. Abdurahmonov, Sh.A. Hakimov Qurilishda pol yotqizish ishlari texnologiyasi- Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma Toshkent-2016 yil

**Eslatma:* test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan - to'g'ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.